TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
19 20
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Google scholar

PubMed MEDLINE

NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health | Advancing Health Through Knowledge



№11-SON

- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

2026-yil, noyabr

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100

Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

Aripkhodjaeva Shakhzoda
resident doctor in national medical center

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТОВ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ОСТЕОМИЕЛИТА ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА 22
Махкамов Зохидхужа Хасанхон угли, Рузиматов Акмалбек Санжарбек угли, Аллаяров Абдулло Улугбек угли

ASSOCIATION OF VARICOCELE SEVERITY WITH SEMEN PARAMETERS IN INFERTILE MEN FROM THE FERGANA REGION: A CROSS-SECTIONAL STUDY 27
Egamberdiyev Dilmurod Kamolitdinovich, Mo‘mindjonov Mansurjon Murodovich, Bozorov Shakhzodbek Rustamovich, Ibrokhimov Diyorbek Valijonovich, Turdiboyev Abduqodir Obidovich

PROFILAKTIK TIBBIYOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 34
Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna, Safarova Sanobar Omontashevna, Djumayeva Hikoyat Sharipovna

DISTONIYALI PUBERTAT DAVRIDAGI BOLALARDA PSIXOVEGETATIV BUZILISHLAR VA NEYROENDOKRIN FAOLLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 38
Abdulxakova Ra’noxon Muxtaraliyevna

ОПТИМИЗАЦИЯ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПОСЛЕОЖОГОВОЙ РУБЦОВОЙ АЛОПЕЦИИ ВОЛОСИСТОЙ ЧАСТИ ГОЛОВЫ: СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МЕТОДОВ ПЛАСТИКИ 43
Ташходжаев Жасур Комилжон угли

OVOZ BOYLAMLARI O‘SIMTASIMON KASALLIKLARINING MORFOLOGIK VA GISTOLOGIK XUSUSIYATLARI 49
Nasiba Shavkatovna Rasulova, Gavxar Saidaxmatovna Xaydarova

ATEROSKLEROTIK KARDIOSKLEROZDA MIOKARD MIKROSIRKULYATOR O‘ZANINING YOSHGA BOG‘LIQ REMODELLANISHI 58
Butayev Sherzod Fayzulloyevich, Jumanov Z. E., Pirmatov S. V.

METABOLIK SINDROMDA YURAKNING ERTA STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL O‘ZGARISHLARI: DIFFUZ MIOKARD FIBROZIDAN OTISH FRAKSIYASI SAQLANGAN YURAK YETISHMOVCHILIGIGACHA 62
Zikrillayev Farrux Abdurashitovich

SARATON BILAN OG‘RIGAN BEMORLARGA TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHGA YONDASHUVNING UMUMIY TAMOYILLARI 70
Atabekov Sanjar Nurmatovich

EKSPERIMENTAL GIPEROKSIGENATSIYADA KALAMUSHLAR BUYRAK TO‘QIMASIDAGI MORFOLOGIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY O‘ZGARISHLARNING KISLOROD KONSENTRATSIYASI VA TA’SIR DAVOMIYLIGIGA BOG‘LIQ DINAMIKASI 79
Namozov Elyorbek Ilhomovich

КРАНИОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЛИЦЕВОГО СКЕЛЕТА У БОЛЬНЫХ С ОДНОСТОРОННЕЙ СКВОЗНОЙ РАСЩЕЛИНОЙ ГУБЫ И НЁБА ПОСЛЕ ХЕЙЛО- И УРАНОПЛАСТИКИ В РАННЕМ И ПОЗДНЕМ СМЕННОМ ПРИКУСЕ 87
Муртазаев Саидиало Муртазаевич, Юлдашев Темурхон Акрамович, Муртазаев Саидазим Саидазамович

ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR ULTRASOUND ESTIMATION OF FETAL WEIGHT: OPPORTUNITIES, EVALUATION METRICS, AND COMPARISON WITH THE HADLOCK FORMULA 93
Dilnoz Botirovna Ibrohimova

ЭТИОЛОГИЯ, КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОПРОВОЖДЕНИЮ ДЕТЕЙ С СИНДРОМОМ ДАУНА 98
Насирова Нодира Хапизовна

ЭНДОТОКСЕМИЯ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ СИСТЕМНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПАРОДОНТИТЕ 107
Мадмаров Махмуд Маъруфович

PSORIAZ KASALLIGINING PATOGENEZI, ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI: KLINIK YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR 112
Yo‘ldosheva Dilnoza Saidazim qizi

MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE PROSTATE GLAND IN ENVIRONMENTALLY INDUCED UROLITHIASIS AND UNDER NORMAL CONDITIONS, AND THEIR BIOCORRECTION 116
Mansurov Sardor Vali ugli

ВЛИЯНИЕ ИНГИБИТОРОВ ПРОТОННОЙ ПОМПЫ НА РАЗВИТИЕ ОСТЕОПОРОЗА: ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ, ФАКТОРЫ РИСКА И КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ 123
Лутфуллаев Олтин Ойбек ўғли

BOLALARDA ATOPIK DERMATITNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULI 129
G‘aniyev Abdurashid G‘aniyevich

MOLIYAVIY RAG‘BATLARNING SOG‘LIQNI SAQLASH XIZMATI SIFATIGA TA’SIRI 133
Kamolova Mohinur Iskandarovna, Obloyorova Ruxshona Inomjon qizi

INTEGRATING PREOPERATIVE AND INTRAOPERATIVE ASSESSMENT WITH THE HOLERIS SCORE IN ACUTE CALCULOUS CHOLECYSTITIS 137
Qurbanov Rustambek Rahimovich, Khamdamov Ilkhomjon Bakhtiyorovich, Raximov Ravshanbek Rustambek o‘g‘li

UZOQ DAVOM ETUVCHI NAVBATCHILIK SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARDA UYQU BUZILISHLARINING YURAK-QON TOMIR XAVFIGA TA’SIRINI BAHOLASH 143
Ulkanbayev Behzodjon Hasanboy o‘g‘li, Botirjon Boltaboyev

NEUROPSYCHOLOGICAL AND COGNITIVE FEATURES OF PATIENTS WITH PARKINSON’S DISEASE DEPENDING ON DISEASE SEVERITY 148
Yusupova Idrisaxon Baxtiyorovna, Mamurova Mavluda Mirhamzayevna

PASTKI JAG‘ YAXSHI SIFATLI O‘SMALARIDA RESIDIV CHASTOTASI VA UNING KLINIK-RENTGENOLOGIK BELGILARI BILAN BOG‘LIQLIGI 155
Jo‘rayev Bahodir Nurmahamad o‘g‘li, G‘aniyev Abduavaz Abduaxadovich, Xazratov Alisher Isomiddinovich

COVID-19 INFEKSIYASINING ONKOLOGIK BEMORLARDA O‘ZIGA XOS KECHISHI 162
Atabekov Sanjar Nurmatovich

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA ADENOMIOZ VA ENDOMETRIOZNI KLINIK, ULTRATOVUSH VA LABORATOR KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA KOMPLEKS BAHOLASH 169
Mirzaabdullaxojiyeva Odinaxon Usmonjon qizi

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И УЛЬТРАСТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДОФАМИНЕРГИЧЕСКИХ НЕЙРОНОВ КОМПАКТНОЙ ЧАСТИ ЧЁРНОЙ СУБСТАНЦИИ СРЕДНЕГО МОЗГА ПРИ БОЛЕЗНИ ПАРКИНСОНА: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ 174
Кадырбергенов Руслан Бердумратович, Мустафаева Сора Кувандиковна, Шарифжонова Нозимахон, Абдухакимова Мухлиса Абдурахим кизи, Суннатуллаева Ирода Фахриддин кизи, Умарова Зульфия Хосиловна

АНАТОМО-ЦИФРОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЧАСТИЧНЫХ ДЕФЕКТОВ ЗУБНЫХ РЯДОВ ПО ДАННЫМ КЛКТ, ВНУТРИРОТОВОГО СКАНИРОВАНИЯ И ВИРТУАЛЬНОЙ ОККЛЮЗИИ 181
Хусанбаева Феруза Акмаловна

MAVSUMIY ALLERGIK RINITGA CHALINGAN BOLALARDA HUJAYRAVIY VA GUMORAL IMMUNITET KO‘RSATKICHLARINING KLINIK-IMMUNOLOGIK XUSUSIYATLARI 189
Urozaliev Sunnat Yusufjonovich, Abdullaev Nurboy Chunaevich

РАКОВЫЕ СТВОЛОВЫЕ КЛЕТКИ КАК КЛЮЧЕВЫЕ РЕГУЛЯТОРЫ ОПУХОЛЕВОЙ ИНВАЗИИ И МЕТАСТАТИЧЕСКОЙ ПРОГРЕССИИ 195
Ойдинова Зухро Равшанбековна, Абдурахманова Севинч Зафар кизи, Мурадуллаева Лазиза Туробжон кизи

ОСОБЕННОСТИ КОЛОНИЗАЦИИ S. AUREUS И СЕНСИБИЛИЗАЦИИ К СПЕЦИФИЧЕСКИМ IgE К СУПЕРАНТИГЕНАМ SEB И TSST-1 У ДЕТЕЙ С АЛЛЕРГИЧЕСКИМ РИНИТОМ И БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ 202
Орынбаева Зухра Наурызбаевна, Нурузова Зухра Абдикадировна, Камалов Зайнитдин Сайфутдинович

SURUNKALI ENDOMETRIT FONIDAGI SURUNKALI CHANOQ OG‘RIG‘INI DAVOLASHDA MAGNITOTERAPIYA VA ELEKTROFOREZNING SAMARADORLIGI 209
Tursoatova Shaxlo Muhiddin qizi, Tilyavova Sitora Amirzoda

SURUNKALI GEMOBLASTOZLAR BILAN BEMORLARDA NAFAS OLISH TIZIMINING ZARARLANISHINI O‘RGANISH 220
Mamatkulova Feruza Xaydarovna, Abduhamidov Mirsaid Komiljon o‘g‘li, Bozorov Umid Ulug‘bek o‘g‘li, Mamatmurodova Sojida Muhammadi qizi, Abdusobirova Sarvinoz Akmal qizi

SURUNKALI MIYELOID LEYKEMIYA BILAN BEMORLARDA TARGET TERAPIYANING PROGNOZI VA NATIJALARI 226
Madasheva Anajan Gazxanovna, Mamatkulova Feruza Xaydarovna, Muxitdinova Ozoda Sherzodovna

KO‘KRAK BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA SKRININGNING O‘RNI: ZAMONAVIY DALILLAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR 231
Allaberganova Xadicha Muradxanovna, G‘afur-Oxunov Mirza-Ali Allayarovich

ULTRASONOGRAPHIC FEATURES AND RADIONUCLIDE IMAGING IN THYROID NODULE ASSESSMENT: A SECONDARY ANALYSIS OF 112 SURGICAL CASES 237
Khalimova Zamira Yusufovna, Omiljonov Murodjon Nusratjdonovich

COMPARATIVE ANALYSIS OF PERICORONARY ADIPOSE TISSUE ATTENUATION, LIPID PROFILE, AND CORONARY ATHEROSCLEROTIC BURDEN IN PATIENTS WITH STABLE ANGINA AND UNSTABLE ANGINA PECTORIS 243
Feruza Abdumalikova Bakhtiyarovna, Bahodir Turakulov Khazratqul ugli

АТИПИЧНЫЕ ФОРМЫ КОСОГЛАЗИЯ И ИХ ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ 250
Савринисо Ибрагимова

COVID-19 DA O‘PKA GIPERTENZIYASINING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI 257
Qosimov Sanjarbek, Azamova Gulhumor

ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ РАСТЕНИЙ РОДА АСТРАГАЛ, ПРОИЗРАСТАЮЩИХ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ 261
Хожамбергенова Пирюза

EKOLOGIK OG‘IR SHAROITDA SURUNKALI OBSTRUKTIV O‘PKA KASALLIGI ZO‘RAYISHLARINING OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 267
Qosimov Sanjarbek, Ismoilova Gulsanam

ИММУНОМИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ ЭФФЕКТЫ ЛОКАЛЬНОГО УЛЬТРАФИОЛЕТОВОГО ОБЛУЧЕНИЯ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ГНОЙНЫХ РАНАХ 271
Тураева Мадина Илхом кизи

СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О МОЛЕКУЛЯРНЫХ МЕХАНИЗМАХ ОСТЕОИНТЕГРАЦИИ ДЕНТАЛЬНЫХ ИМПЛАНТАТОВ 278
Дехканов Алишер Махаммадусмонович, Исомов Мираскад Максудович

QORIN VA KICHIK CHANOQ BO‘SHLIG‘I SIMULTAN OPERATSIYALARIDA ERAS PROTOKOLIGA ASOSLANGAN MULTIMODAL ANESTEZIYANING PERIOPERATSION SAMARADORLIGI (ADABIYOTLAR SHARHI) 286
Qurbonov Navruzbek Zayniddin o‘g‘li

IRSIY KOAGULOPATIYA BILAN BEMORLARDA TROMBOZ HOLATLARINI BAHOLASH 291
Mamatkulova Feruza Xaydarovna, Bekkamov Sobir Axmad o‘g‘li, Erkinov Hamid Zayniddin og‘li, Keldiyarov Dilshodbek Tolibjon o‘g‘li, To‘rayev Baxrom Jo‘ra o‘g‘li

YOSH HARBIY XIZMATCHILARDA STRESS-TESTLAR VA BIOMARKERLAR ASOSIDA ARTERIAL GIPERTENZIYANI ERTA ANIQLASH VA OLDINI OLISH 297
Nigmonov Baxodir Baxtiyor o‘g‘li, Botirjon Boltaboyev

ETIOPATHOGENESIS, DIAGNOSIS, AND CONTEMPORARY MANAGEMENT OF UROLITHIASIS: AN INTEGRATED EVIDENCE-BASED REVIEW 303
Bahromov Bekzod Shavkatovich

QORIN VA KICHIK CHANOQ BO‘SHLIG‘I AZOLARI SIMULTAN OPERATSIYALARIDA ANESTEZIOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TALQINI 308
Qurbonov Navruzbek Zayniddin o‘g‘li

BIRLAMCHI SUYAK O‘SMALARI EPIDEMIOLOGIYASI VA TASNIFI: ZAMONAVIY MA’LUMOTLAR SHARHI 314
Karimov Otabek Mo‘mimjon o‘g‘li

ENHANCING SURGICAL TECHNIQUES FOR CONGENITAL HYDRONEPHROSIS IN PAEDIATRIC PRACTICE 320
Mukhsinov Sardorbek Uktamovich, Akhmedov Islom Yusufjonovich, Axmedov Yusufjon Mahmudovich

TUXUMDONLAR POLIKISTOZI SINDROMIDA DAVOLASH SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI KLINIK-GENETIK VA GORMONAL-METABOLIK PREDIKTORLAR 326
Xasanova Gulhayo Saypidin qizi

КЛАСТЕРЫ КОМОРБИДНОСТИ И БИОМАРКЕРЫ ФИБРОЗА МИОКАРДА (ГАЛЕКТИН-3 И sST2) ПРИ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ С СОХРАНЕННОЙ ФРАКЦИЕЙ ВЫБРОСА: СВЯЗЬ С КЛИНИЧЕСКИМ ТЕЧЕНИЕМ 331
Нуриддинов Умед Зайниддин угли

DECADAL EPIDEMIOLOGY AND DETECTION TRAJECTORIES OF SEVERE MENTAL DISORDERS IN UZBEKISTAN (2014–2024): TRANSITIONING FROM LATE-STAGE INSTITUTIONALIZATION TO EARLY-INTERVENTION NEUROPSYCHIATRY 335
Jabborov Sherbek Otabek ugli

QANDLI DIABET 2-TURI FONIDA RIVOJLANGAN PARODONT KASALLIKLARINING ERTA DIAGNOSTIKASI VA KOMPLEKS DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH 343
Qutbiddinov Nuriddin Najmiddinovich

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ОВАРИАЛЬНОГО РЕЗЕРВА У ПАЦИЕНТОК С ЭНДОМЕТРИОМОЙ ПОСЛЕ РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ ПРЕГРАВИДАРНОЙ ПОДГОТОВКИ К ПРОГРАММАМ ВРТ 349
Жумаева Дилноза Рустамовна

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА FGF-23 И ЭНДОКРИННО-МЕТАБОЛИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ У РЕЦИПИЕНТОВ ПОЧЕЧНОГО ТРАНСПЛАНТАТА И ПАЦИЕНТОВ НА ГЕМОДИАЛИЗЕ 355
Комилжонова Ойгул Олимжоновна

СРАВНЕНИЕ МИКРОДИСКЭКТОМИИ И ЭНДОСКОПИЧЕСКОЙ ДИСКЭКТОМИИ ПРИ ГРЫЖЕ ПОЯСНИЧНОГО МЕЖПОЗВОНКОВОГО ДИСКА 360
Каромов Сухроб Мирмухсин угли

METABOLIK SINDROM OG‘IRLIGI ENDOMETRIY SARATONINI LAPAROSKOPIK DAVOLASHDA KONVERSIYA VA OPERATSIYADAN KEYINGI ASORATLARNING XAVF OMILI SIFATIDA 365
Davronov Bekzod Alisherovich, Ulmasov Firdavs G‘ayratovich, Esankulova Bustonoy Sobirovna

ВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ДЕСЕН И СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА ПРИ БОЛЕЗНИ КРОНА ПО ДАННЫМ ГОДИЧНОГО КЛИНИЧЕСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ 371
Курбонов Хайитжон Шавкат угли

КЛИНИКО-ПСИХОПАТОЛОГИЧЕСКИЕ И НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХИАТРИИ 379
Суратов Толибжон Голиб угли

TO‘G‘RI ICHAK QON TOMIRLARINING KLINIK ANATOMIYASI VA ZAMONAVIY GEMORROIDEKTOMIYANING ANATOMIK ASOSLARI 384
Ubaydullayev Rustam Latipovich, Turdaliyev Komiljon Maxsutaliyevich, Tojiddinov Mirzoulug‘bek, Axmedov Ulugbek Baxodirovich, Musa-axmatova Saidabonu Alisher qizi

ОПТИМИЗАЦИЯ ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА И ТВЁРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ У БОЛЬНЫХ С ДЕФИЦИТОМ ЙОДА 392
Хайитова Мохинур Джураевна

SUT BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH VA SUT BEZI SALOMATLIGIDAN XABARDORLIKNING AHAMIYATI 398
Mahmudjonova Sayyoraxon Shavkatbek qizi

КЛИНИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К РАННЕМУ ВЫЯВЛЕНИЮ СУБКЛИНИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ МИОКАРДА У МОЛОДЫХ ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2-ГО ТИПА И СТАБИЛЬНОЙ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА 403
Джураева Гулхаё Джалол кизи

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИНАМИЧЕСКОГО КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНОГО МОНИТОРИНГА ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА 408
Эргашева Гулшан Тохировна

ДВУХЛЕТНЯЯ ДИНАМИКА ОБЕСПЕЧЕННОСТИ ВИТАМИНАМИ B12, D И ФОЛАТАМИ У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2-ГО ТИПА И ОЖИРЕНИЕМ ПОСЛЕ БАРИАТРИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ 415
Юнусова Азиза Бахрамовна

ВЫСОКОЕ НОРМАЛЬНОЕ АРТЕРИАЛЬНОЕ ДАВЛЕНИЕ У ЛИЦ МОЛОДОГО ВОЗРАСТА: КАРДИОМЕТАБОЛИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ РИСКА И ПЕРСОНИФИЦИРОВАННЫЕ ПОДХОДЫ К РАННЕЙ ПРОФИЛАКТИКЕ ГИПЕРТЕНЗИИ 420
Тогайдуллаева Дилдора Дилмурод кизи

MIKROBIOLOGIK MONITORING VA OQILONA ANTIBAKTERIAL TERAPIYA ASOSIDA YIRINGLI O‘RTA OTITNI DAVOLASH TAKTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH 425
Otakulov Otabek Olimjon o‘g‘li

DORI VOSITALARI TA’SIRIDA RIVOJLANGAN RINITNI DAVOLASH TAKTIKASINI KONSERVATIV VA LAZER USULIDAGI JARROHLIK KORREKSIYASI NATIJALARINI QIYOSIY BAHOLASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 429
Abdunazarov Toxirjon Sadulla o‘g‘li

БИОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ БИОГЕННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В ОРГАНИЗМЕ ЧЕЛОВЕКА И ЗАБОЛЕВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ИХ ДЕФИЦИТОМ 434
Халилов Содикжон Шокир угли, Хушвакова Нилуфар Джуракуловна, Халилов Сохибжон Шокир угли, Адхамов Уктам Адхам угли

ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАДОНОВОЙ ТЕРАПИИ В КОМПЛЕКСНОМ КОНСЕРВАТИВНОМ ЛЕЧЕНИИ АТРОФИЧЕСКОГО РИНОФАРИНГИТА 439
Очилов Тоир Мурод угли, Хушвакова Нилуфар Джуракуловна

СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ У ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЯ ОСТАЮТСЯ ОДНОЙ ИЗ НАИБОЛЕЕ АКТУАЛЬНЫХ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ, НЕСМОТРЯ НА РАЗВИТИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ И ЛЕЧЕБНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ 444
Шадиева Шодия Шухратовна

PATOLOGIK SO‘RG‘ICH AJRALMASI BILAN KECHUVCHI SUT BEZI KASALLIKLARINI TASHXISLASHDA DUKTOGRAFIYANING O‘RNI 448
Rasulova Dilfuzaxon Komiljon qizi

ТЕРАПЕВТИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ФОТОХРОМОТЕРАПИИ НА СЛИЗИСТУЮ ОБОЛОЧКУ НОСОГЛОТКИ ПРИ АТРОФИЧЕСКОМ РИНОФАРИНГИТЕ 454
Очилов Тоир Мурод угли, Хушвакова Нилуфар Джуракуловна

ГИСТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ПОВРЕЖДЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ЖЕЛУДКА ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ PM2.5 И СИГАРЕТНОГО ДЫМА: КРИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ДАННЫХ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ALTHAEA OFFICINALIS L. 459
Халимова Юлдуз Салохиддиновна

O‘ZBEKISTONDA 2-TUR QANDLI DIABET TARQALISHI VA YASHIRIN KECHUVCHI HOLATLAR MUAMMOSI: MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN QIYOSIY TAHLIL 466
Nematjonov Abduqodir Abdushukur o‘g‘li, Anvarov Saloxiddin Anvar o‘g‘li, Jaksimuratova Xurliman Tatlimuratovna

O‘ZBEKISTONDA QON AYLANISH TIZIMI KASALLIKLARIDAN O‘LIMNING HUDUDIY VA DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI 472
Jaksimuratova Xurliman Tatlimuratovna, Omonova Odina Botir qizi, Jumanova Sevinch Komiljon qizi

ОСОБЕННОСТИ МОРФОЛОГИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ В ПЕРИОДЕ НОВОРОЖДЁННОСТИ 479
Файзуллаева Мохларойим Сайфулло кизи, Ахмедова Дилбар Юсуфжановна, Урунова Манзура Алламуродовна, Карджавова Гулноза Абилкасимовна

SHISHAIONOMER SEMENTLAR VA KOMPOZIT MATERIALLARNING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI HAMDA ADGEZIYA MEXANIZMLARI: ADABIYOTLAR SHARHI 486
Rajapova Zebo Irgashbayevna, Jumaniyozova Mahinur Mansurbek qizi

КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЧЕТАННОГО ТЕЧЕНИЯ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА И ТУБЕРКУЛЁЗА ПОЗВОНОЧНИКА: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ПОДХОДЫ К ВЕДЕНИЮ ПАЦИЕНТОВ 490
Эргашов Бехруз Комилович

ИММУНОВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ БИОМАРКЕРЫ В ОЦЕНКЕ ТЯЖЕСТИ И КРАТКОСРОЧНОГО РИСКА УХУДШЕНИЯ ОСТРЫХ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЙ У ДЕТЕЙ ДО ПЯТИ ЛЕТ: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ 497
Муртазаева Зилола Фахриддиновна

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ЭПИТЕЛИЯ ДЫХАТЕЛЬНЫХ ПУТЕЙ ПРИ ОСТРЫХ РЕСПИРАТОРНЫХ ВИРУСНЫХ ИНФЕКЦИЯХ У ДЕТЕЙ: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ 503
Файзиев Фазлиддин Шабонович

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA QULOQ KASALLIKLARI VA ESHITISH BUZILISHLARI: TARQALISHI, TIBBIY-IJTIMOIY OMILLAR VA PROFILAKTIKA YONDASHUVLARI 510
Xujabayeva Gulira’no Erkabayevna

NEYROSIRKULYATOR DISTONIYA TASHXISI MUAMMOSI: AN’ANAVIY KLINIK TURLARDAN ZAMONAVIY SINDROMAL YONDASHUVGA 517
Jaksimuratova Xurliman Tatlimuratovna, Rahmonova Volidaxon Sherzodovna, Norbavayev Azizbek Alham o‘g‘li

QONDAGI GLYUKOZA MIQDORINI PASAYTIRUVCHI BA’ZI TABIIY DORI BIRIKMALARI: SAMARADORLIK VA TA’SIR MEXANIZMLARI 524
Boltayeva Nodira Ozodjon qizi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GADJETLAR TA’SIRI XAVFINI BAHOLASH VA HAMSHIRALIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 529
Mahammadiyeva Sevara Xidirboyevna, Esirgapova Shahzoda Sodiqovna

ENDOSKOPIK ENDONAZAL DAKRIOSISTORINOSTOMIYADAN KEYINGI DAVRDA KOMPLEKS PROFILAKTIK DAVOLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH 533
Komolidinov Boburjon Ma’rufjon o‘g‘li

ВЛИЯНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА 1 ТИПА НА СУСТАВНУЮ КАПСУЛУ 537
Темурова Нишода Барзуевна

ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ИНФЕКЦИЙ МОЧЕВОЙ СИСТЕМЫ И АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТНОСТЬ УРОПАТОГЕНОВ У ДЕТЕЙ В РЕГИОНЕ ПРИАРАЛЬЯ 541
Баймуратова Гулбахар Аимуратовна

КЛИНИКО-БИОХИМИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ И ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ ГЕПАТОБИЛИАРНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПАНКРЕАТИТЕ 549
Идиева Гулнавоз Фарход кизи

PSYCHOEMOTIONAL STRESS AND GASTROINTESTINAL SYMPTOMS IN CHILDREN: PATHOPHYSIOLOGICAL LINKS, CLINICAL ASSESSMENT, AND PREVENTIVE APPROACHES 556
Raufova Nasiba Shukhratovna

THE SIGNIFICANCE OF URINARY MINERAL METABOLISM PARAMETERS IN ASSESSING BONE MINERAL DENSITY LOSS IN WOMEN WITH PREMATURE OVARIAN INSUFFICIENCY AND EARLY MENOPAUSE 561
Dildora Rajabova Khayriddin qizi

TIZZA BO‘G‘IMI OSTEOARTROZIDA RENTGENOLOGIK O‘ZGARISHLAR BOG‘LIQLIGINI BAHOLASH NATIJALARINI OPTIMALLASHTIRISH 566
Azimjonov Asilbek

КЛИНИЧЕСКИЕ И ЭЭГ-ПРЕДИКТОРЫ ЛЕКАРСТВЕННОЙ РЕЗИСТЕНТНОСТИ ПРИ ФОКАЛЬНОЙ ЭПИЛЕПСИИ 573
Али-Оглы Алихан Мамутович

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ КОГНИТИВНОЙ ОБРАБОТКИ ПРОЕКЦИОННОЙ ИНФОРМАЦИИ, ПОЛУЧАЕМОЙ С ПРИМЕНЕНИЕМ ДОСМОТРОВОЙ РЕНТГЕНОВСКОЙ ТЕХНИКИ 579
Ибрахимов Улугбек Абиджанович

HARBIY XIZMATCHILARDA METABOLIK SINDROM BILAN BOG‘LIQ NISHON A’ZOLAR SUBKLINIK SHIKASTLANISHINING CHASTOTASI VA TUZILISHI 584
Ismatova M. N.

YUQORI BLEFAROPLASTIKADAN KEYINGI A-DEFORMATSIYANI TASHXISLASH VA ZAMONAVIY JARROHLIK USULLARI YORDAMIDA DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (ADABIYOTLAR SHARHI) 590
Alikulov Behruz Alisher o‘g‘li
Iminov Komiljon Odiljonovich

YUQORI JAG‘ O‘SMALARINING KLINIK-MORFOLOGIK TAVSIFI VA KECH ANIQLANISH SABABLARINING BOSQICHMA-BOSQICH TAHLILI 596
Mashrafov Mashrafjon Qahramonzod

MUDDATIDAN OLDINGI TUG‘RUQ XAVFINI BAHOLASHDA RELAKSIN VA MATRITSALI METALLOPROTEINAZALARNING DIAGNOSTIK AHAMIYATI 603
Narkulova Soxiba
To‘rayeva Fayoza Ortiq qizi
Bahodirova Moxizoda

KORONAR QON AYLANISHI BUZILISHI VA YURAKNING ISHEMIK-REPERFUZION SHIKASTLANISHINING PATOFIZIOLOGIK MEXANIZMLARI 608
Jaqsimuratova Xurliman Tatimuratovna
Mamasoliyev Muhammadsodiq O‘tkirbekovich
Hamroqulov Muhriddin Muhammadali o‘g‘li

RATIONAL USE OF ANTIBIOTICS IN ENT INFECTIONS 613
Nurmatova Zaxro Alijon ki

GEMOLITIK KAMQONLIKDA GEMOLIZ PREDIKTORLARI VA GEPATORENAL TIZIM DISFUNKSIYALARI PATOGENEZI 619
O‘rmonbekova Dilfuza Sanatullayevna
Karamatdinova Aysanem Qoyshibay qizi
Fayzullayeva Dinara Zulqaynarovna
Abdullayev Muhammadzohid Umidulla o‘g‘li
Jamshitov Xojiakbar Saidbek o‘g‘li
Quvanov Javohir Nurmurod o‘g‘li

DENTAL CALCULUS: MECHANISMS OF FORMATION, CLASSIFICATION, CLINICAL MANIFESTATIONS AND CONTEMPORARY APPROACHES TO ITS REMOVAL AND PREVENTION.....624
Sidikova Mahfuza Eshonovna

YUQORI JAG‘ SINISHLARINI OSTEOSINTEZ QILISHDA TITAN PLASTINALARNING O‘RNI: DAVOLASH BOSQICHLARI, YO‘L QO‘YILISHI MUMKIN BO‘LGAN XATOLAR VA ASORATLAR.....632
Xamidov Murodxon Juraxon o‘g‘li

КЛИНИКО-ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК И ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННАЯ НУТРИТИВНАЯ КОРРЕКЦИЯ.....639
Ортикбоев Жахонгир Ортикбой угли

ВЛИЯНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2-ГО ТИПА НА КЛИНИКО-МОЛЕКУЛЯРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ, ТЕЧЕНИЕ И ПРОГНОЗ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....646
Пулатов Озод Абдугафурович
Гафур-Ахунов Мирза-Али Алиярович
Акрамов Ахтам Рабимович
Журабоев Довудбек Нодиржон угли

YONOQ SUYAGI VA YONOQ RAVOG‘I SINISHLARI: KLINIK BELGILARI, TASHXIS USULLARI VA DAVOLASH TAKTIKASINI TANLASH.....653
Xamidov Murodxon Juraxon o‘g‘li



UO‘K: 617.52-001.5-07-089 YONOQ SUYAGI VA YONOQ RAVOG‘I SINISHLARI: KLINIK BELGILARI, TASHXIS USULLARI VA DAVOLASH TAKTIKASINI TANLASH

Xamidov Murodxon Juraxon o‘g‘li
Central Asian Medical University, og‘iz bo‘shlig‘i va yuz-jag‘ jarrohligi kafedrasi assistenti, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi, 64-uy, Farg‘ona sh., O‘zbekiston
Telefon: +998 95-485-00-70
ORCID: 0000-0076-0204-3200
E-mail: murodkhon.khamidov98@mail.ru

Annotatsiya. Yonoq suyagi va yonoq ravog‘i sinishlari yuzning o‘rta qismi shikastlanishlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, yuz shaklining buzilishi, ko‘rish va sezuvchanlikning o‘zgarishi hamda og‘iz ochilishining cheklanishiga olib keladi. Ushbu ilmiy maqolada yonoq suyagi sinishlarining klinik belgilari, ularni o‘rganishda qo‘llanilgan tashxis usullari va davolash taktikasini tanlash mezonlari darsliklar hamda klinik qo‘llanmalar asosida tahlil qilindi. Sinishlarning Knight–North va Zingg tasniflari hamda ularning davolash usullari bilan bog‘liqligi alohida ko‘rib chiqildi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, shikastlanishlar har yili 4,4 million kishining hayotiga zomin bo‘ladi va barcha o‘limlarning qariyb 8 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda 2024-yilda yo‘l-transport hodisalarida 8 901 kishi jarohat olgan. Yonoq suyagi sinishlarida tashxis qo‘yishning asosiy usuli kompyuter tomografiyasi ekanligi, davolash taktikasi esa bo‘laklarning siljishi, sinish tipi va ko‘z kosasi devorlarining holatiga bog‘liqligi ko‘rsatildi. Klinik belgilar oltita guruhga ajratildi va davolash usullari Zingg tasnifi asosida tizimlashtirildi. Xulosa sifatida, sinish tipiga mos usulni tanlash yuz simmetriyasi va funksiyalarni to‘liq tiklashga yordam berishi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: yonoq suyagi sinishi, yonoq ravog‘i, yuzning o‘rta qismi, ko‘z kosasi, infraorbital nerv, kompyuter tomografiyasi, repozitsiya, osteosintez.

Аннотация. Переломы скуловой кости и скуловой дуги широко распространены среди повреждений средней зоны лица и приводят к деформации лица, нарушениям зрения и чувствительности, а также ограничению открывания рта. В данной научной статье на основе учебников и клинических руководств проанализированы клинические признаки переломов скуловой кости, методы диагностики, применявшиеся при их изучении, и критерии выбора тактики лечения. Клинические признаки разделены на шесть групп, а методы лечения систематизированы на основе классификации Zingg. Отдельно рассмотрены классификации Knight–North и Zingg, а также их связь с выбором метода лечения. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), травмы ежегодно уносят жизни 4,4 миллиона человек и составляют почти 8 % всех случаев смерти. В Узбекистане в 2024 году в дорожно-транспортных происшествиях травмы получили 8 901 человек. Показано, что основным методом диагностики переломов скуловой кости является компьютерная томография, а тактика лечения зависит от смещения отломков, типа перелома и состояния стенок глазницы. В заключение отмечено, что выбор метода лечения в соответствии с типом перелома способствует полному восстановлению симметрии лица и его функций.

Ключевые слова: перелом скуловой кости, скуловая дуга, средняя зона лица, глазница, подглазничный нерв, компьютерная томография, репозиция, остеосинтез.

Abstract. Fractures of the zygomatic bone and zygomatic arch are common among midface injuries and can lead to facial deformity, visual and sensory disturbances, and restricted mouth opening. This scientific article analyzes, on the basis of textbooks and clinical guidelines, the clinical signs of zygomatic fractures, the diagnostic methods used in their assessment, and the criteria for selecting treatment tactics. Clinical signs are divided into six groups, and treatment methods are systematized according to the Zingg classification. The Knight–North and Zingg classifications and their relationship to the choice of treatment method are considered separately. According to the World Health Organization (WHO), injuries cause 4.4 million deaths every year and account for nearly 8% of all deaths. In Uzbekistan, 8,901 people were injured in road traffic crashes in 2024. Computed tomography is identified as the main diagnostic method for zygomatic fractures, while treatment tactics depend on fragment displacement, fracture type, and the condition of the orbital walls. In conclusion, selecting a treatment method appropriate to the fracture type helps restore facial symmetry and function fully.

Keywords: zygomatic fracture, zygomatic arch, midface, orbit, infraorbital nerve, computed tomography, reduction, osteosynthesis.

KIRISH

Yonoq suyagi yuzning o‘rta qismida bo‘rtib turuvchi, yuz kengligi va yonoq sohasining shaklini belgilovchi asosiy suyaklardan biridir. U peshona, chakka, yuqori jag‘ va ponasimon suyaklar bilan birikib, ko‘z kosasining tashqi va pastki devorlarini hosil qilishda ishtirok etadi [1, 2]. Shu sababli yonoq suyagining sinishi faqat kosmetik nuqson bilan cheklanmay, ko‘rish, ko‘z olmasining harakati, yuz terisining sezuvchanligi va pastki jag‘ harakatiga ham ta’sir ko‘rsatadi [3, 4]. Darsliklarda yonoq-ko‘z kosasi majmuasi sinishlari yuzning o‘rta qismi shikastlanishlari orasida burun suyaklari sinishlaridan keyin eng ko‘p uchraydigan sinishlar qatoriga kiritiladi [4, 5]. Yonoq suyagi sinishlari asosan mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklarda uchraydi. Ularning asosiy sabablari maishiy janjallar, yo‘l-transport hodisalari, yiqilishlar va sport jarohatlari hisoblanadi [6, 7]. Bemorlar ko‘pincha dastlabki soatlarda yuzdagi shish tufayli suyak deformatsiyasini sezmaydi, shish qaytgandan keyin esa yonoq sohasining yassilanganini payqaydi. Bu holat tibbiy yordamga kech murojaat qilishga va suyak bo‘laklarining noto‘g‘ri bitishiga sabab bo‘ladi [3, 8]. Noto‘g‘ri bitgan yonoq suyagini tuzatish murakkab rekonstruktiv operatsiyalarni, ba’zan esa suyak transplantatlari va individual implantlardan foydalanishni talab qiladi [5, 9]. Bundan tashqari, yonoq suyagi sinishi ko‘pincha bosh miya chayqalishi, burun suyaklari va yuqori jag‘ sinishlari bilan birga uchraydi. Bu esa bemorni bir nechta mutaxassis ishtirokida tekshirishni taqozo etadi [4, 7]. Shikastlanishdan keyingi dastlabki soatlarda ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifati ko‘p jihatdan davolashning yakuniy natijasini belgilaydi.

Shikastlanishlar global sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, shikastlanishlar har yili 4,4 million kishining hayotiga zomin bo‘ladi va barcha o‘limlarning qariyb 8 foizini tashkil etadi. Ulardan 3,16 millioni tasodifiy, 1,25 millioni esa zo‘ravonlik bilan bog‘liq shikastlanishlar natijasida yuz beradi [10, 11]. Yiqilishlar har yili 684 mingdan ortiq kishining o‘limiga sabab bo‘ladi, yo‘l-transport hodisalari esa shikastlanishlar oqibatidagi o‘limlarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi [10, 12]. Global kasalliklar yuki baholashiga ko‘ra, 2017-yilda dunyoda yuz suyaklari sinishlarining 7,5 milliondan ortiq yangi holati qayd etilgan [13]. O‘zbekistonda ham shikastlanishlar, ayniqsa, yo‘l-transport jarohatlari dolzarb muammo hisoblanadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada yo‘l-transport hodisalarida jarohatlanganlar soni 2021-yilda 9 230 nafarni, 2022-yilda 9 606 nafarni, 2024-yilda esa 8 901 nafarni tashkil etgan [14, 15]. 2024-yilda ushbu hodisalar oqibatida 2 203 kishi halok bo‘lgan [15]. Jarohatlanganlarning bir qismida yuz skeleti, jumladan, yonoq suyagi sinishlari kuzatiladi va ular yuz-jag‘ jarrohligi bo‘limlarida davolanadi [16, 17]. Bundan tashqari, maishiy jarohatlar va sport shikastlanishlari ham yonoq suyagi sinishlarining sezilarli qismini tashkil etadi, biroq bunday holatlar bo‘yicha alohida respublika statistikasi yuritilmaydi. Shu sababli yo‘l-transport jarohatlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar yuz skeleti shikastlanishlari yukini bilvosita baholash imkonini beradi [18].

Yonoq suyagi sinishlarini tashxislash va davolash yondashuvlari XX asr davomida sezilarli darajada o‘zgargan. Ilgari tashxis asosan klinik ko‘rik va oddiy rentgenogrammalarga tayangan bo‘lsa, hozirgi vaqtda kompyuter tomografiyasi sinishning uch o‘lchamli tasvirini olish imkonini beradi [4, 19]. Davolashda ham yopiq repozitsiya usullari bilan bir qatorda titan miniplastinalar yordamida ochiq repozitsiya va ichki fiksatsiya keng qo‘llanilmoqda [9, 20]. Biroq qaysi sinishda qaysi usul afzal ekanligi masalasida darsliklarda turli fikrlar mavjud. Bu esa amaliyotda yagona yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, ayrim mualliflar siljigan sinishlarning aksariyatida faqat yopiq repozitsiyani yetarli deb hisoblasa, boshqalari repozitsiyadan keyingi ikkilamchi siljish xavfi tufayli ichki fiksatsiyani afzal ko‘radi [2, 4]. Shu bois turli olimlar tomonidan qo‘llanilgan

tashxis usullari va tasniflarni ularning davolash taktikasi bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqish amaliy ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi — darsliklar va klinik qo‘llanmalar asosida yonoq suyagi va yonoq ravog‘i sinishlarining klinik belgilarini, ularni o‘rganishda qo‘llanilgan tashxis usullarini umumlashtirish hamda davolash taktikasini tanlash mezonlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada asosiy e’tibor amaliyotchi yuz-jag‘ jarrohi uchun zarur bo‘lgan klinik mezonlarga qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yonoq suyagi sinishlarini tizimli o‘rganish XX asr boshlarida boshlangan. H.D. Gillies va hammualliflari 1927-yilda yonoq ravog‘i sinishlarini chakka sohasidagi kesma orqali repozitsiya qilish usulini taklif qilganlar. Bu usul hozirgacha «Gillies usuli» nomi bilan darsliklarda keltiriladi [21]. Undan oldinroq W.W. Keen og‘iz ichi kirish yo‘li orqali repozitsiya qilishni tavsiflagan bo‘lib, bu usul teri yuzasida chandiq qoldirmasligi bilan afzal hisoblanadi [4, 9]. Ikkala usul ham bugungi kunda izolyatsiyalangan yonoq ravog‘i sinishlarida qo‘llanib kelinmoqda. Rus jarrohlik stomatologiyasi maktabida yonoq suyagi va ravog‘i sinishlarini yopiq usulda repozitsiya qilish uchun A.A. Limberg ilmog‘i keng qo‘llanilgan. Yu.I. Bernadskiy va T.G. Robustova darsliklarida ushbu usulning texnikasi va ko‘rsatmalari batafsil bayon qilingan [1, 2]. Yu.I. Bernadskiy klinik kuzatishlar asosida yonoq suyagi sinishlarida suyak bo‘laklarining siljish yo‘nalishini tavsiflab, ko‘pincha bo‘laklar ichkariga va pastga siljishini ko‘rsatgan [2]. A.A. Kulakov tahriri ostidagi milliy qo‘llanmada esa yopiq repozitsiyadan keyin bo‘lakning barqarorligini paypaslash va nazorat rentgenogrammasi orqali baholash zarurligi ta’kidlanadi. Beqaror holatlarda ichki fiksatsiyaga o‘tish tavsiya etiladi [6]. Bu yondashuv yopiq va ochiq usullar o‘rtasidagi tanlovni klinik kuzatuvlarga asoslash imkonini beradi. Tasniflash masalasi turli mualliflar tomonidan klinik va rentgenologik usullar asosida ishlab chiqilgan. J.S. Knight va J.F. North 1961-yilda rentgenogrammalar va davolash natijalarini taqqoslab, yonoq suyagi sinishlarini olti guruhga ajratgan hamda har bir guruh uchun repozitsiyadan keyingi barqarorlikni baholagan [22]. Ularning kuzatishlariga ko‘ra, ayrim guruhlarda yopiq repozitsiyadan keyin bo‘lak barqaror qolsa, boshqa guruhlarda fiksatsiyasiz qayta siljish kuzatilgan. M. Zingg va hammualliflari 1992-yilda klinik materiallar asosida soddaroq tasnifni taklif qilib, sinishlarni A (to‘liq bo‘lmagan, bitta tayanch ustun sinishi), B (to‘liq, monobo‘lakli) va C (ko‘p parchali) tiplarga ajratgan [23]. Ushbu tasnif davolash taktikasini tanlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun xorijiy darsliklarda keng qo‘llaniladi [5, 20].

R.J. Fonseca va M. Miloro darsliklarida yonoq suyagini fiksatsiya qilishda bir, ikki yoki uch nuqtali fiksatsiya tushunchalari tavsiflangan. Bunda peshona-yonoq choki, ko‘z kosasining pastki cheti va yonoq-yuqori jag‘ kontrforsi fiksatsiya nuqtalari sifatida ko‘rsatilgan [4, 5]. AO qo‘llanmasida esa sinishning barqarorligini baholashda yonoq suyagining to‘rtta tayanch nuqtasi bilan munosabatini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi [20]. E. Ellis va M.F. Zide har bir fiksatsiya nuqtasiga eng qulay kirish yo‘llarini — qosh, qovoq osti, konyunktiva orqali va og‘iz ichi kirish yo‘llarini tavsiflagan [9]. Ko‘z kosasi asoratlarini o‘rganishda oftalmologik usullar, jumladan, ko‘rish o‘tkirligini aniqlash, diplopiyani tekshirish va ekzoftalmometriya qo‘llanilgan. A.A. Timofeyev va V.V. Afanasyev darsliklarida yonoq suyagi sinishlarida ko‘z kosasi tubining shikastlanishi diplopiya va enoftalmga sabab bo‘lishi mumkinligi, shu sababli bunday bemorlarni oftalmolog bilan birgalikda tekshirish zarurligi qayd etilgan [3, 7]. O‘zbek mualliflarining darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarida yonoq suyagi sinishlarining klinik belgilari, rentgenologik tashxisi va jarrohlik usullari yoritilgan [8, 19, 24]. Ularda infraorbital nerv shikastlanishi bilan kechadigan sinishlarda sezuvchanlikni tiklash muddatlari va tibbiy yordamga kech murojaat qilgan bemorlarda davolash natijalarining pasayishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [16, 25]. Bolalar yuz-jag‘ jarrohligiga oid darslikda esa bolalarda yonoq suyagi sinishlarining kamroq uchrashi va o‘sish zonalarini saqlash zarurligi ko‘rsatilgan [26].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola klinik xarakterga ega bo‘lib, yonoq suyagi sinishlari qaysi olimlar tomonidan va qanday usullar bilan o‘rganilganini tahlil qilishga asoslanadi. Material sifatida yuz-jag‘ travmatologiyasi va jarrohlik stomatologiyasi bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi darsliklar, AO qo‘llanmasi, tasnif mualliflarining asl ishlari hamda klinik protokollar olindi [1–9, 16, 17, 19–25]. Har bir manbada qo‘llanilgan usullar to‘rt guruhga ajratildi: klinik ko‘rik usullari (yuz simmetriyasini baholash, paypaslash, sezuvchanlikni tekshirish), rentgenologik usullar (yarim aksial proyeksiya, aksial proyeksiya, kompyuter tomografiyasi), oftalmologik usullar (ko‘rish o‘tkirligini aniqlash, diplopiyani tekshirish, ekzoftalmometriya) va davolash natijalarini taqqoslash. Tasniflar ularning mualliflari qo‘llagan usullar va davolash taktikasi bilan bog‘liqligiga ko‘ra solishtirildi. Har bir usulning tashxisiy imkoniyatlari, cheklovlari va zamonaviy darsliklardagi o‘rni qayd etildi.

Manbalarni tanlash mezonlari sifatida ularning oliy ta’lim uchun tasdiqlangan darslik, xalqaro miqyosda tan olingan qo‘llanma yoki tasnif muallifining asl nashri bo‘lishi, shuningdek, yonoq suyagi sinishlarining tashxisi yoki davolashini yoritishi belgilandi. Bir-biriga zid tavsiyalar uchragan hollarda AO qo‘llanmasidagi ta’riflar asos qilib olindi [20]. Tahlil uchun jami 26 ta manba, shu jumladan 10 ta respublika manbasi tanlab olindi. Statistik ko‘rsatkichlar JSSTning shikastlanishlar va zo‘ravonlik bo‘yicha ma’lumotlari, Global kasalliklar yuki baholashi hamda O‘zbekiston Respublikasi rasmiy idoralarining yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha ma’lumotlaridan olindi [10–15]. Shikastlanishlar oqibatidagi o‘lim sabablarining ulushi va respublikada jarohatlanganlar sonining dinamikasi taqqoslandi. Tahlilda tavsifiy va qiyosiy usullar qo‘llanildi, hisob-kitoblar Microsoft Excel dasturida bajarildi, natijalar esa jadvallar, sxemalar va tahrirlanadigan diagrammalar ko‘rinishida ifodalandi. Klinik belgilar darsliklarda qanchalik tez-tez tilga olinishiga qarab tartiblandi va o‘xshash patogenetik mexanizmlar asosida guruhlandi. Davolash usullari esa sinish tipi, suyak bo‘laklarining siljishi va ko‘z kosasi devorlarining holatiga ko‘ra tizimlashtirilib, Zingg tasnifi asosidagi jadvalga keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, shikastlanishlar oqibatidagi o‘limlarning eng katta ulushi yo‘l-transport jarohatlariga (29 %) to‘g‘ri keladi. Undan keyin yiqilishlar (15 %) va odamlararo zo‘ravonlik (taxminan 11 %) turadi (1-rasm) [10, 11]. Aynan shu uchta sabab yonoq suyagi sinishlarining ham asosiy sabablari hisoblanadi, chunki ular ko‘pincha yuzning bo‘rtib turuvchi qismlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri zarba berilishi bilan kechadi.



1-rasm. Shikastlanishdan o‘lim sabablarining ulushi, %.

O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalarida jarohatlanganlar soni 2022-yilda 9 606 nafarga yetib, 2024-yilda 8 901 nafarga kamaygan; 2022–2024-yillardagi pasayish 7,3 foizni tashkil etadi (2-rasm) [14, 15].



2-rasm. O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalarida jarohatlanganlar soni.

Darsliklardagi tavsiflarni umumlashtirish yonoq suyagi sinishining oltita asosiy klinik belgisini ajratish imkonini berdi (3-rasm). Ulardan yonoq sohasining yassilanishi va infraorbital sohada uvishish deyarli barcha manbalarda yetakchi belgi sifatida keltiriladi.



3-rasm. Yonoq suyagi sinishining asosiy klinik belgilari.

Tahlil natijalari yonoq suyagi sinishlarining klinik belgilari darsliklarda bir xil tavsiflanishini, biroq tashxis va davolash usullariga yondashuv vaqt o‘tishi bilan o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ilgari asosiy tashxis usuli hisoblangan yarim aksial proyeksiyadagi rentgenogramma ko‘z kosasi tubi va orqa devorlarining holatini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli hozirgi darsliklarda kompyuter tomografiyasi barcha siljigan sinishlarda majburiy tekshiruv sifatida tavsiya etiladi [4, 5]. Bu, ayniqsa, diplopiya yoki ko‘z olmasi harakati cheklangan bemorlarda muhim ahamiyatga ega. Kompyuter tomografiyasi yordamida olingan uch o‘lchamli tasvir operatsiyani rejalashtirish, kirish yo‘lini tanlash va fiksatsiya nuqtalarini aniqlashda ham qo‘l keladi [19, 20]. Davolash taktikasini tanlashda sinish tipi asosiy mezon hisoblanadi (1-jadval). Zingg tasnifidagi A tipidagi, ayniqsa, izolyatsiyalangan yonoq ravog‘i sinishlarida Gillies usuli yoki Limberg ilmog‘i yordamida yopiq repozitsiya ko‘pincha yetarli bo‘ladi va fiksatsiya talab etilmaydi [2, 23]. B tipidagi siljigan monobo‘lakli sinishlarda repozitsiyadan keyin suyak bo‘lagi ko‘pincha yana siljiydi. Shu sababli ikki yoki uch nuqtada titan miniplastinalar yordamida fiksatsiya qilish tavsiya etiladi [4, 20]. C tipidagi ko‘p parchali sinishlarda esa bir necha kirish yo‘li orqali to‘liq ochiq repozitsiya, zarur hollarda esa ko‘z kosasi tubini rekonstruksiya qilish talab etiladi [5, 9]. Yonoq suyagining to‘g‘ri holatini baholashda uning ponasimon suyak bilan birikkan joyi — ko‘z kosasining tashqi devori eng ishonchli mo‘ljal hisoblanadi, chunki ushbu sohada suyak bo‘lagining to‘g‘ri joylashuvi yuz proyeksiyasining tiklanganini ko‘rsatadi [20].

1-jadval.
Yonoq suyagi sinishlarining tiplari va davolash usullari

Sinish tipi (M. Zingg)	Klinik-rentgenologik tavsif	Davolash usuli
A1 — izolyatsiyalangan yonoq ravog‘i sinishi	Chakka oldi sohasida botiqlik, og‘iz ochilishining cheklanishi	Gillies usuli yoki Limberg ilmog‘i bilan yopiq repozitsiya
A2–A3 — ko‘z kosasi tashqi devori yoki pastki cheti sinishi	Mahalliy «pog‘ona», infraorbital sohada uvishish	Repozitsiya, zarur bo‘lsa bir nuqtali fiksatsiya
B — to‘liq monobo‘lakli sinish	Yonoq sohasining yassilanishi, ko‘z atrofi gematomasi	Ochiq repozitsiya, ikki-uch nuqtali titan miniplastinalar
C — ko‘p parchali sinish	Yuz assimetriyasi, diplopiya, enoftalm	Bir necha kirish yo‘li, osteosintez va ko‘z kosasi tubi rekonstruksiyasi

Operatsiyani bajarish vaqti ham davolash natijasiga ta’sir qiladi. Darsliklarda repozitsiyani shish paydo bo‘lishidan oldin yoki u qaytgandan keyin, odatda, shikastlanishdan keyingi dastlabki 7-10 kun ichida bajarish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatiladi [3, 7]. Tibbiy yordamga kech murojaat qilgan bemorlarda suyak bo‘laklari orasida fibroz to‘qima shakllanib, repozitsiya jarayonini qiyinlashtiradi va osteotomiya o‘tkazish zaruratini

yuzaga keltirishi mumkin [2, 8]. Infraorbital nerv shikastlanishi bilan kechadigan sinishlarda sezuvchanlikning tiklanishi suyak bo‘lagining o‘z vaqtida repozitsiya qilinishiga bog‘liq. Nerv kanalidagi bosim bartaraf etilmasa, uvishish uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin [7, 25]. Ko‘z kosasi devorlari shikastlanganda oftalmolog bilan hamkorlik qilish, ko‘rish o‘tkirligi va ko‘z olmasi harakatini operatsiyadan oldin hamda keyin baholash zarur [3, 5]. Operatsiyadan keyingi davrda bemorga burunni qattiq qoqmaslik, shikastlangan tomonda yotmaslik va og‘iz gigiyenasiga rioya qilish tavsiya etiladi [1, 25].

Respublikada yo‘l-transport hodisalarida jarohatlanganlar sonining kamayishi ijobiy tendensiya bo‘lsa-da, har yili qariyb 9 ming kishining jarohatlanishi yuz-jag‘ jarrohligi bo‘limlarida yonoq suyagi sinishi bilan og‘rigan bemorlar oqimining saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi [14, 15]. Bu esa birlamchi bo‘g‘in shifokorlari, tez tibbiy yordam xodimlari va travmatologlar orasida yonoq suyagi sinishining asosiy belgilarini bilish hamda bemorlarni o‘z vaqtida ixtisoslashgan bo‘limga yo‘llash muhimligini ko‘rsatadi [17, 18]. Shuni ham ta’kidlash lozimki, bolalarda yonoq suyagi sinishlari kattalarga nisbatan kamroq uchraydi va ko‘pincha siljishsiz kechadi. Shu sababli ularda konservativ yondashuv ko‘proq qo‘llaniladi. Titan plastinalar qo‘llanilganda esa ularni olib tashlash muddatlari alohida rejalashtiriladi [26]. Ushbu ilmiy maqolaning cheklovlari uning darsliklar va qo‘llanmalar tahliliga asoslanganligi hamda respublika bo‘yicha yonoq suyagi sinishlarining alohida rasmiy statistikasi mavjud emasligidan iborat. Hududiy klinik ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish va tahlil qilish sinish tiplari hamda davolash natijalarini aniqroq baholashga yordam beradi.

XULOSA

Yonoq suyagi sinishlarida yonoq sohasining yassilanishi, ko‘z atrofi gematomasi, infraorbital sohada uvishish, ko‘z kosasi chetidagi «pog‘ona» belgisi, og‘iz ochilishining cheklanishi va diplopiya asosiy klinik belgilar hisoblanadi. Tashxisning asosiy usuli kompyuter tomografiyasi bo‘lib, u sinish tipini va ko‘z kosasi devorlarining holatini aniq baholash imkonini beradi. Izolyatsiyalangan yonoq ravog‘i sinishlarida Gillies usuli yoki Limberg ilmog‘i yordamida yopiq repozitsiya yetarli bo‘lsa, siljigan va ko‘p parchali sinishlarda titan miniplastinalar yordamida ikki yoki uch nuqtali fiksatsiya afzal hisoblanadi. Repozitsiyani shikastlanishdan keyingi dastlabki kunlarda bajarish, oftalmolog bilan hamkorlik qilish va operatsiyadan keyingi muntazam nazorat davolash natijalarini yaxshilaydi, asoratlar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi hamda bemorning ijtimoiy faolligini tezroq tiklashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Робустова Т.Г. Хирургическая стоматология: учебник. – 4-е изд. – М.: Медицина, 2010. – 688 с.
2. Бернадский Ю.И. Травматология и восстановительная хирургия черепно-челюстно-лицевой области. – 3-е изд. – М.: Медицинская литература, 2006. – 456 с.
3. Тимофеев А.А. Челюстно-лицевая хирургия: учебник. – Киев: ВСИ «Медицина», 2015. – 800 с.
4. Fonseca R.J., Walker R.V., Barber H.D., Powers M.P., Frost D.E. Oral and Maxillofacial Trauma. – 4th ed. – St. Louis: Elsevier Saunders, 2013. – 896 p.
5. Miloro M., Ghali G.E., Larsen P.E., Waite P. Peterson’s Principles of Oral and Maxillofacial Surgery. – 4th ed. – Cham: Springer, 2022.
6. Кулаков А.А., Робустова Т.Г., Неробеев А.И. Хирургическая стоматология и челюстно-лицевая хирургия: национальное руководство. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. – 928 с.
7. Афанасьев В.В. Травматология челюстно-лицевой области. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. – 256 с.
8. Boymurodov Sh.A. Yuz-jag‘ sohasi shikastlanishlari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2019.
9. Ellis E. III, Zide M.F. Surgical Approaches to the Facial Skeleton. – 3rd ed. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2019. – 304 p.
10. World Health Organization. Preventing injuries and violence: an overview. – Geneva: WHO, 2022. – 14 p.
11. World Health Organization. Injuries and violence: fact sheet. – Geneva: WHO, 2024.
12. World Health Organization. Global status report on road safety 2023. – Geneva: WHO, 2023. – 81 p.
13. Lalloo R., Lucchesi L.R., Bisignano C. et al. Epidemiology of facial fractures: incidence, prevalence and years lived with disability estimates from the Global Burden of Disease 2017 study // Injury Prevention. – 2020. – Vol. 26, Suppl. 1. – P. i27–i35.
14. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati. Yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha yillik statistik ma’lumotlar (2021-2025). – Toshkent, 2026.
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi. 2024-yilda sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari to‘g‘risida ma’lumot. – Toshkent, 2025.

16. Shomurodov Q.E. Yuz-jag‘ sohasi travmatologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.
17. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Yuz o‘rta qismi suyaklari sinishlarini tashxislash va davolash bo‘yicha klinik protokol. – Toshkent, 2022.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash: statistik to‘plam. – Toshkent, 2024.
19. Amanullayev R.A., Musayev Sh.Sh. Yuz-jag‘ sohasi rentgenodiagnostikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.
20. Ehrenfeld M., Manson P.N., Prein J. Principles of Internal Fixation of the Craniomaxillofacial Skeleton: Trauma and Orthognathic Surgery. – Stuttgart; New York: Thieme, 2012. – 400 p.
21. Gillies H.D., Kilner T.P., Stone D. Fractures of the malar-zygomatic compound: with a description of a new X-ray position // British Journal of Surgery. – 1927. – Vol. 14, № 56. – P. 651–656.
22. Knight J.S., North J.F. The classification of malar fractures: an analysis of displacement as a guide to treatment // British Journal of Plastic Surgery. – 1961. – Vol. 13. – P. 325–339.
23. Zingg M., Laedrach K., Chen J. et al. Classification and treatment of zygomatic fractures: a review of 1,025 cases // Journal of Oral and Maxillofacial Surgery. – 1992. – Vol. 50, № 8. – P. 778–790.
24. Azimov M.I., Shomurodov Q.E. Jarrohlik stomatologiyasi va yuz-jag‘ jarrohligi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 412 b.
25. Toshkent davlat stomatologiya instituti. Jarrohlik stomatologiyasi fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2022.
26. Yusupov Sh.Sh. Bolalar yuz-jag‘ jarrohligi: darslik. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2018.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 11

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge